

ISSN: 2181-4155



MERIDIAN
DIAGNOSTIC HOSPITAL

АСТАСАМУ

Ilmiy jurnal • Scientific journal • Научный журнал

№ 5 (1) 2024





ISSN: 2181-4155

ActaCAMU

Ilmiy jurnal
№ 5 (1) 2024
MAXSUS SON

**"Atrof-muhit strategiyasi, sogʻliqni saqlash
va yashil iqtisodiyotni integratsiyasi –
barqaror kelajak asosi"**

mavzusidagi ilmiy amaliy anjuman
MATERIALLARI

17-18 aprel 2024-yil
Fargʻona shahar



ISSN: 2181-4155

ActaCAMU

Ilmiy jurnal
№ 5 (1) 2024
MAXSUS SON

Bosh muharrir

Mamasadikov Nurillo Shukrullayevich – CAMU rektori

Bosh muharrir o‘rinbosari

dotsent Normatova Shahnoza Anvarovna

Tahrir hay‘ati:

prof. Nishonov Yusibjon Nishonovich (Farg‘ona)
prof. Madazimov Madamin Mo‘minovich (Andijon)
prof. Ermatov Nizom Jumaqulovich (Toshkent)
prof. Ro‘ziyev Sherzod Ibodullayevich (Toshkent)
prof. Abdullayev Ravshanbek Babajonovich (Urganch)
dotsent Botirov Murodjon Turg‘unboyevich (Farg‘ona)
prof. Salaxidinov Kamoliddin Zuxriddinovich (Andijon)
prof. Gulzoda Maxmadshox Qurbonali (Tojikiston)
prof. Saidov Abdumanon Sattorovich (Tojikiston)
prof. Privalova Irina Leonidovna (Rossiya)
dotsent Suxinin Andrey Anatolyevich (Rossiya)
prof. Nedjdet Unyuvar (Turkiya)
prof. Ayxan Attar (Turkiya)
prof. Chukanov Aleksey Nikolayevich (Belorus)
prof. Rubnikovich Sergey Petrovich (Belorus)
prof. Mir Axmad Manzur (Hindiston)
prof. Sholan Rashad Farxadovich (Ozarbayjon)
prof. Taychiyev Imamnazar Taychiyevich (Qirg‘iziston)
prof. Shatmanov Suynali Toktonazarovich (Qirg‘iziston)
dotsent Pyagay Grigoriy Borisovich (Toshkent)
prof. Gilyarevskiy Sergey Rudjerovich (Rossiya)
dotsent Abdumanonov Ahrorjon Adxamjonovich (Farg‘ona)



Directory of Research
Journals Indexing

INDEX



COPERNICUS

I N T E R N A T I O N A L



TABRIK SO'ZI



Assalomu alaykum hurmatli anjuman qatnashchilari, ilm ahli! Central Asian Medical University tibbiyot universitetining “Acta CAMU” jurnalining ushbu soni **“Atrof – muhit strategiyasi, sog‘liqni saqlash va yashil iqtisodiyotni integratsiyasi – barqaror kelajak asosi”** mavzusida 2024-yil 17-18-aprel kunlari o‘tkazilgan xalqaro anjuman materiallarini chop etishga bag‘ishlandi.

Ushbu anjuman Central Asian Medical University tibbiyot universiteti, O‘zbekiston Ekologik partiyasi Farg‘ona viloyati Kengashi, Turon fanlar Akademiyasi hamda Farg‘ona viloyati hokimligi bilan hamkorlikda tashkil etilgan bo‘lib, anjumaning maqsadi – hozirgi globallashuv sharoitida butun dunyoda yuz berayotgan ekologik krizisni barqarorlashtirishda O‘zbekistonning faol ishtirokini ta‘minlashdan iborat.

Anjuman doirasida quyidagi yo‘nalishlarga e‘tibor qaratilgan:

1. Aholi salomatligini saqlash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda tibbiyot muassasalari, tashkilotlarining roli.
2. Iqlim muammolari - barqaror rivojlanish yo‘lida eng asosiy tahdid sifatida.
3. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va uglerod neytralligiga erishish muammolari.
4. Yer degradatsiyasi, suvdan foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligi muammolari.
5. Ekologik-xuquqiy ta‘lim va tarbiyani rivojlantirishda jamoat tashkilotlari, oilaning o‘rni.
6. Oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlarni “Ekologiyalashtirish” muammolari.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 1-dekabr kuni Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo‘lib o‘tgan BMT iqlim konferensiyasining (COP28) yalpi majlisida so‘zlagan nutqida bugungi kunda iqlim o‘zgarishi barqaror rivojlanishning asosiy muammosiga aylanganini, ayniqsa Orol fojiasi sharoitida Markaziy Osiyo va unga tutash mintaqalarda dolzarb bo‘lib qolganini alohida ta‘kidladi. Tuproq degradatsiyasi, muntazam chang bo‘ronlari, ichimlik suvi tanqisligi, havoning ifloslanishi, bioxilma-xillikning kamayishi, hosildorlikning keskin kamayishi va boshqa ko‘plab muammolar mintaqaning millionlab aholisining hayot sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganligini alohida aytib o‘tdi. Yangi O‘zbekistonning strategik ustuvor yo‘nalishi yashil iqtisodiyotga o‘tish va uglerod neytralligiga erishish ekanini ta‘kidlab o‘tdi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari Yashil universitet negizida xorijiy mamlakatlarning yetakchi olim va ekspertlari ishtirokida Iqlim fanlari forumi platformasida yaqin ilmiy almashinuvni yo‘lga qo‘yish va qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazish g‘oyasini ilgari surdi.

Darhaqiqat Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda “Ekologiya – hayot-mamotimiz”dir. Demak, ekologik holatni yaxshilash, uni barqarorlashtirishga kattayu kichik barcha safarbar etilishi lozim. Zero, toza havo, yashil makon, sifatli suv - uzoq umr ko‘rish hamda salomatlikning asosiy garovi hisoblanadi.

Hurmatli ishtirokchilar, xorijiy mehmonlar, yana bir bor barchalaringizni anjuman ishida faol ishtirok etganliklaring bilan tabriklayman. Hammaga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman. Ishonamanki, o‘tkazilgan anjumanda qabul qilingan qarorlar, albatta hayotda o‘z natijasini ko‘rsatadi.

Rektor Nurillo Mamasadikov